

O‘rinova Maftuna No‘mon qizi
OXU o‘qituvchisi

O‘ZBEK XALQ BOLALAR O‘YINLARIDA OBRAZ MASALASI

Annotatsiya: Ushbu maqolada o‘zbek xalq bolalar o‘yinlari va ulardagi obraz masalasiga diqqat qaratilgan. Bir nechta o‘yin matni tahlili orqali o‘yin folklori obrazlari ochib berilgan. Natijada o‘zbek xalq bolalar o‘yin folklorida obrazlar tasnifi va tizimi haqida xulosa chiqarilgan.

Kalit so‘zlar: o‘yin, obraz, tasnif, tizim, mif, ertak, ramz.

Аннотация: В данной статье рассматриваются узбекские народные детские игры и проблема образности в них. Фольклорные образы игры раскрываются посредством анализа нескольких игровых текстов. В результате сделан вывод о классификации и системе образов в узбекском детском игровом фольклоре.

Ключевые слова: игра, образ, классификация, система, миф, сказка, символ.

Annotation: This article focuses on the issue of Uzbek folk children's games and the image in them. The images of game folklore are revealed through the analysis of several game texts. As a result, a conclusion is drawn about the classification and system of images in Uzbek folk children's game folklore.

Keywords: game, image, classification, system, myth, fairy tale, symbol.

Bolalar uchun har qanday detal obraz darajasiga ko‘tarila oladi. Ular o‘zi minib yurgan novdacho‘pni toychoq, o‘yinchoq qo‘g‘irchog‘ini kelin obrazida tasavvur qilaveradilar. Bola tafakkuri kattalar anglamagan yohud e‘tibor bermagan kichik narsalardan ham o‘zi uchun yangilik yarata oladi.

Folklorshunos O.Safarov o‘yinlarni folkloriy hodisa sifatida o‘rganar ekan, o‘yinda harakatni yuzaga keltiradigan so‘zning badiiy-estetik vazifasi mohiyatini har tomonlama tadqiq qilish zarurligini ta’kidlaydi. Bunda xalq e‘tiqodi va magik tasavvurlari genezisiga nazar solish lozimligiga e‘tiborni qaratadi. Olim o‘yin-qo‘shiqlar tarkibidagi har bir obraz shunchaki paydo bo‘lmaganligi, har birining o‘z vazifasi borligini ta’kidlaydi[1, 274].

Ho, kishma, kishma, kishma,

Bir la’li marjon kishma.

Marjonlarim bo‘ynimda,

Chechaklari zulfimda.

Zulfim bor-u, zulfim bor

Darvozaning qulfi bor.

Darvozani ochaylik,

Cho'lga qarab qochaylik.

Cho'lning yo'li ingichka,

Guljon opam kelincha.

Qo'llarida uzukcha,

Qoshlari bor suzukcha.

Uzukchani oldilar,

Sandiqchaga soldilar.

Sandiqchani bir tepdim,

Tillolari sochildi[2, 184].

“Ho kishma” o'yini qizlar tomonidan bir-biriga yuzma-yuz turib, qo'lma-qo'l ushlab, chapdan-o'ngga yoki o'ngdan-chapga qarab, sakrab-sakrab o'ynaladi. Matnda kelinchak obrazi tasvirini ko'rish mumkin. Marjon, zulf, uzuk, suzuk qosh, sandiqcha, tilla kabi detallar kelinga ishora qilgan. O'zbek xonadonlarida qizlarning yoshligidan ularga sarpo-suruv yig'ish odatga aylangan. Ota-ona yaxshi niyat qilib qiziga sandiq oladi va voyaga yetguncha uni sep bilan to'ldiradi. Har bir qiz kelin bo'lish orzusida yashaydi. Shu bois qizaloqlar o'yin-qo'shig'ida kelinchak obrazi yetakchilik qiladi. Kelinning bo'ynida marjon, zulfi taralgan, taqinchoqlar bilan ziynatlangan, demak, to'y bo'lish arafasida. Mazkur o'yin-qo'shiq yor-yor matni ta'sirida yaratilgan bo'lishi mumkin. To'y marosimlarida katta-yu kichik birga xursandchilik qilishadi. Kelinga aytilgan yor-yor keyinchalik ishtirokchi qizaloqlar nutqiga ham o'tgan. Zero, o'yin matnidagi tasvirlar yor-yor turkumidagi o'xshatishlarni esga soladi.

E'tiborni tortgan yana bir jihat o'yin-qo'shiqda sandiq obrazining berilishidir. Sandiq milliy buyumlardan biri hisoblanadi. Folklor asarlarida sandiq sir-sinoatli ashyo sifatida talqin qilinadi. “Kuntug'mish” dostonida Xolbeka jo'natgan sandiq dostonning keyingi voqealari rivojiga turtki beradi yoxud bolajonlarning sevimli “Zumrad va Qimmat” ertagida tilla bilan to'ldirilgan qizil sandiq, ikki ajdaho yotgan oq sandiq qahramonlarning mukofoti va jazosi sifatida beriladi. O'yin-qo'shiqda keltirilgan sandiq esa tilla bilan to'la: “Sandiqchani bir tepdim, Tillolari sochildi”. Bu kelinga kuyov tomonidan beriladigan mahr pulini eslatadi.

“Otilgan do'ppini kim olib keladi?”, “Malakcha bog'i”, “Tepdim sandiq ochildi”, “Chumoli, chumoli” kabi o'yin-qo'shiqlarda ham sandiq obrazi keltiriladi. Faqat ularda sandiq ochilib, ichidan bodom to'kilishi tasviri berilgan. Bodom boylik, baxt-saodat, farzand, muhabbat ramzini ifodalagani bois milliy libos va do'ppilarda ham aks ettiriladi. Demak, o'yin-qo'shiqlarda sandiqning tilla yoki bodom bilan to'la holda tasvirlanishi baxtli va farovon hayotga ishora qiladi. Shunday qilib, o'yin-qo'shiqlardagi sandiq obrazi chiroyli xulq-odobi sabab qahramon qizlarga tuhfa qilingan qizil sandiq ta'sirida shakllangan bo'lishi mumkin.

Mazkur parchadagi darvoza detaliga ham e'tibor berish lozim: “Zulfim bor-u, zulfim bor, Darvozaning qulfi bor. Darvozani ochaylik, Cho'lga qarab qochaylik”. Aslida o'yin-qo'shiqning bu qismi “Quvlashmachoq” matnidan o'zlashib qolgan. Darvoza bir bosqichdan ikkinchi bosqichga o'tish jarayonini, cho'lga – bepoyon cheksizlikka qochish imkoni tug'ilganini bildiradi. Navbatchi o'yinchi esa ularni tutishi lozim. “Ho kishma” o'yinida bo'lsa qulfi bor

darvoza kelin boradigan yangi xonadon ramzi. Kelin o‘z vazifalarini chiroyli bajarsa, o‘sha uyda uzoq va baxtli umr kechiradi. Zero, cho‘lning bepoyon va cheksizligi shunga ishora qilmoqda.

Bolalar tomonidan “Oltin darvoza” o‘yin-qo‘shig‘i qiziqib o‘ynalgan. Bunda ikki bola qo‘llarini bir-biriga berib, darvoza hosil qilishadi va navbatda turgan bolalarni undan tez-tez o‘tkazishadi. Darvoza yopilishiga to‘g‘ri kelib qolgan bola o‘yindan chiqadi. Qo‘shiq matni quyidagicha:

Oltin darvozadan,

Bolalar o‘tsinlar.

Hammasini qo‘yamiz,

Bittasini qo‘ymaymiz.

Darvoza, darvoza,

Oltin qulfli darvozadan

Hammani o‘tkazamiz.

Faqat, faqat bir kishini

O‘tkazmaymiz, o‘tkazmaymiz. Darvoza – bola tafakkuridagi g‘ayrioddiy makon oralig‘idagi o‘tish vositasi. Undan hamma ham o‘tolmasligi ravshan. Chunki “bittasini” qo‘yishmaydi. Bizningcha, bu o‘yin xalqning diniy qarashlari asosida shakllangan bo‘lishi mumkin (jannat va do‘zax eshiklari haqidagi tasavvur-tushunchalar ta‘sirida). Darvozadan o‘ta olmagan o‘sha bir kishi do‘stlari bilan kelisha olmaydigan urushqoq, badfe‘l, boshqalarga yoqmaydigan bola bo‘lishi mumkin. Oltin darvozadan o‘tish uchun esa u yaxshi tarafga o‘zgarishi zarur. “Bo‘rilar va echkilar”, “G‘ozlarim”, “Ot sug‘orish”, “Laylak uchdi”, “Cho‘pon va shoqol” kabi qator o‘yinlarda hayvon obrazlari ishtirok etadi. Ularning aksari ajdodlarimizning totemistik qarashlari asosida shakllangan.

“Chittigul”, “Boychechak”, “Oppoqjon”, “Gunafsha” kabilarda esa gul va o‘simliklar obrazi yetakchilik qiladi.

Xulosa sifatida aytish mumkinki, tahlillar davomida O.Safarov tomonidan to‘plangan o‘yin-qo‘shiqlarning obrazlar tizimi nihoyatda boy ekanligi anglashildi. Ularni quyidagicha guruhlash mumkin:

1. Inson(shaxs)lar ko‘rinishidagi obrazlar(kelinchak, boboycha, buvi, dada, oyi, aka-opa, ukasingil, cho‘pon).
2. Jonivorlar obrazi(mushuk, sichqon, g‘oz, ot, bo‘ri, echki, o‘rdak, ayiq, ninachi).
3. O‘simliklar obrazi(daraxtlar, gullar, kartoshka, sholg‘om).
4. Predmetlar obrazi(tosh, sandiq, darvoza, o‘yinchoq, arra, tesha, bolta).

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Ruziyeva, M. Y. (2020). About color symbols in folklore. Journal of critical reviews. ISSN-2394-5125 VOL, 7.
2. Ruziyeva, M. Y., & Aslonova, S. S. (2021). Theoretical and Practical Foundations of Teaching Folklore In Primary School. Middle European Scientific Bulletin, 10.
3. [Lyro-epic literary fairy tales in uzbek children's literature](#)
MY Ruziyeva, S Lobar
4. Yoqubovna, R. M. (2017). Expression of Attitude to Colors in Turkic National Ritual Songs. ANGLISTICUM. Journal of the Association-Institute for English Language and American Studies, 6(1), 54-68.
5. Yokubovna, R. M. (2020). About color symbols in folklore. JCR, 7(17), 461-466.
6. Ruziyeva, M. Y., & Lobar, S. (2023). Lyro-epic literary fairy tales in uzbek children's literature.
7. Bahrievna, P. N., & Ro'ziyeva, M. Y. (2023). Reforms and Innovations in the Educational System in Uzbekistan. American Journal of Public Diplomacy and International Studies (2993-2157), 1(6), 47-51.
8. Ro'ziyeva, M. Y. (2020). COLOR SYMBOLISM IN UZBEK FOLKLORE. Theoretical & Applied Science, (5), 277-284.
9. Ruzieva, M. Y. (2022). SYMBOLISM OF MYTH, SYMBOL AND COLOR. Ann. For. Res, 65(1), 2719-2722.
10. Ruzieva, M. (2016). Colour and its psychoanalytical interpretation in folklore. Язык и культура (Новосибирск), (23), 127-130.
11. Haqqulova, D. (2024). ABDURAHMON GO ‘ZAL–YASSAVIYSHUNOS. PEDAGOG, 7(6), 8-15.
12. Haqqulova, D. (2024). ADABIYOTSHUNOS OLIM ABDURAHMON GO ‘ZALNING TADQIQOTLARI XUSUSIDA. PEDAGOG, 7(5), 548-555.
13. XAQQULOVA, D. (2023). BADIYLIK MASALALARI TADQIQIDA OLIM MAHORATI. Наука и технология в современном мире, 2(5), 5-11.
14. Abduvasiyevna, X. D. (2024). SO ‘Z TUZILISHI VA SO ‘Z YASASH. The latest pedagogical and psychological innovations in education, 1(2), 261-266.
15. Abduvasiyevna, X. D. (2024). NUTQ MADANIYATI VA OG ‘ZAKI MULOQOT. The latest pedagogical and psychological innovations in education, 1(2), 255-260.
16. Abduvasiyevna, X. D. (2024). MATN TAHLILI VA MAZMUNNI TUSHUNISH. The latest pedagogical and psychological innovations in education, 1(2), 279-284.